

ZAMBURUG'LAR BO'LIMI TAVSIFI, VAKILLARINING TUZILISHI, TARQALISHI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Nozima Bohodirjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Ani va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi

101-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15151912>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi zamburug'lar bo'limining umumiy tavsifi, umumiy xususiyatlari anatomik va morfologik tuzilishi, sistematikasi, zamburug'larning turlari, tabiatda va inson hayotidagi zamburug'larning tutgan o'rni haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: zamburug'lar, mikologiya, gifa, sporangiy, spora, lignin, sellyuloza, jinsiy ko'payish, bazidiomitsetlar, tuban zamburug'lar.

Аннотация: В данной диссертации даны полные сведения об общей характеристике отдела грибов, общей характеристике, анатомо-морфологическом строении, систематике, видах грибов, роли грибов в природе и жизни человека.

Ключевые слова: грибы, микология, гифы, спорангии, споры, лигнин, целлюлоза, половое размножение, базидиомицеты, донные грибы.

Abstract: This thesis provides a general description of the department of fungi, general characteristics, anatomical and morphological structure, systematics, types of fungi, the role of fungi in nature and human life.

Keywords: fungi, mycology, hyphae, sporangia, spores, lignin, cellulose, sexual reproduction, basidiomycetes, basal fungi.

Zamburug' (Mycetes) — eukariot organizmlar hisoblanadi. Ular tayyor organik moddalar hisobiga yashaydi, ya'ni geterotrof organizm hisoblanadi. Odatda o'simliklarda, tuproqda, suvda, hayvonlarda yoki ularning qoldiqlarida hayot kechiradi. Oziqlanish usuliga qarab parazit va saprofit Zamburug'larga bo'linadi. Zamburug'larning odamlar va hayvonlar uchun zararli va foydali yuz mingdan ortiq turi uchraydi. Zamburug'larni o'rganuvchi fan mikologiya deb ataladi. Ko'pchilik zamburug'larning (ba'zi hujayra ichki parazitlaridan tashqari) vegetativ tanasi mitseliy ko'rinishida, ya'ni oziqlanish substrati sirtiga yoki ichiga taralib, uchidan o'sadigan ingichka ipcha — gifalardan iborat. Zamburug' rivojlanishi uchun kislorod zarur bo'lib, aerob organizm hisoblanadi. Lekin achitqi zamburug'iiga ozgina kislorod xam yetarli. Ko'pchilik zamburug'lar turli xil (spirtli, limonli) achitish xususiyatiga ega. 20—25° da yaxshi o'sadi, ba'zilari 2— 4° da ham o'saveradi. Zamburug'larning o'sishi uchun yorug'lik zarur emas, lekin quyosh nuri ularning o'sishi va spora hosil qilishiga salbiy ta'sir etadi. Ko'payishi 3 xil usulda amalga oshadi bular:

1. Vegetativ ko'payish - mitseliy ipchalarining bo'linishi yoki sklerotsiyalar bilan amalga oshadi. Bu bo'lakchalar har xil yo'l bilan tarqalib, qulay sharoitga tushganda yangi mitseliysi hosil bo'ladi.

2. Jinsiz ko'payish - mitseliyning maxsus shoxchalarida hosil bo'ladigan sporalar orqali ro'y beradi. Sporalar hosil bo'lishiga qarab endogen va ekzogen bo'ladi. Endogen sporalar odatda gifa (sporangiy yoki zoosporangiy)ning sharsimon uchlarida ko'p miqdorda rivojlanadi.

3. Jinsiy ko'payish - ikkita har xil jinsiy hujayraning qo'shilishidan hosil bo'ladigan zigotalar orqali ro'y beradi. . hamma joyda keng tarqalgan. Aksari Zamburug'larning tabiatda

umri kiska. Ularning mitseliysi bir necha sutkada rivojlanib, spora hosil qilgach, o'sishdan to'xtab, nobud bo'ladi. Mitseliysi ko'p yil yashaydigan ham bor. Jumladan, patogen va parazit . mitseliysi bir necha yillab yashaydi. Shuningdek, sklerotsiylari va turlituman sporalari bilan uzoq vaqtgacha saqlanadigan ham bo'ladi. Tuproqda yashaydigan o'simlik qoldiqlari (jumladan qiyin parchalanadigan selluloza va lignin)ni yemiradi va mineralashtiradi. Yog'ochlarni, asosan, po'kak yemiradi. Ko'pchilik o'simliklarda turli kasalliklarni qo'zg'atadi. Odamlardagi qator kasalliklar: kal, qirma temiratki va boshqalarni qo'zg'atadi. Foydali ham ko'p. Penicullium va Aspergillus turkumiga mansub Zamburug'lardan vitaminlar, antibiotiklar, limon kislota va steroid preparatlar olishda foydalaniladi. Achitqi vino, non, pivo tayyorlashda ishlatiladi. Zamburug'lardan ko'pchilik, to'qimachilikda va sanoatning boshqa tarmoqlarida qo'llaniladigan turli xil fermentlar olinadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ovqatga ishlatiladi. Iste'mol qilinadigan Zamburug'larning turi 100 dan ortadi. Bular ko'plari qimmatli bo'lib, tarkibida oqsil moddalari, vitaminlar va fermentlar bor. Ularni asosan, konservalab (quritib, tuzlab, ziralab) iste'mol qilinadi. Servalab (quritib, tuzlab, ziralab) iste'mol qilinadi. Zambrug'larni klassifikatsiyalashda ularni eng muhim belgilariga, jumladan, xivchinlarining joylashishi va tuzilishiga, jinssiz va jinsiy ko'payish xususiyatiga, hujayra devorining tuzilishiga va polisaxaridlar tarkibiga qaraladi shunga kora, zamburug'lar 7ta sinfga bo'lib o'rganiladi. Bular:

1. Xitridiomitsetsimonlar (Chytridiomycetes) bu sinf vakillarining mitseliysi boshlang'ich xolda bo'lib, hujayra devoir yo'q. jinssiz ko'payishi zoosporalar orqali bo'ladi. Jinsiy ko'payishi gametagamiya yoki oogamiya usuli bilan boradi. Hujayra devorida xitin va glyukan uchraydi.

2. Gifoxitriomitsetsimonlar (Hyphochytriomycetes) bu sinf vakillarining vegetative tanasi bir hujayrali bo'lib, yalang'och rizomitseliy hosil qiladi. Jinssiz ko'payishi shoxlangan bir xivchinli zoosporalar bilan boradi. Hujayra devorida xitin va selluloza saqlanadi.

3. Oomitsetsimonlar (Oomycetes) bu sinf vakillari mitseliysi rivojlangan, lekin hujayrasiz tuzilishga ega organizmlardir. Jinssiz ko'payishi ikki xivchinli zoosporalar yordamida boradi. Jinsiy ko'payishi oogamiya usulida amalga oshadi. Hujayra devorida selluloza va glyukan bor.

4. Zigomitsetsimonlar (Zygomycetes) sinfi vakillarining mitseliysi yaxshi rivojlangan. Jinssiz ko'payishi sporangiasporalar orqali boradi. Jinsiy ko'payishi izogamiya yo'li bilan boradi. Hujayra devorida xitin va xitozan bor.

5. Aksomitsetsimonlar (Ascomycetes) sinfi vakillarining mitseliysi yaxshi tarqqiy etgan. Jinssiz ko'payishi konidiasporalar bilan boradi. Jinsiy ko'payishi gametangiogamiya usuli bilan boradi.

6. Bazidiomitsetsimonlar (Basidiomycetes) sinfi vakillarining mitseliysi ko'p hujayrali. Jinssiz ko'payishi somatogamiya usuli bilan boradi. Jinsiy ko'payish sporalari bazidiya deb ataladigan hujayralar ustida hosil bo'ladi. zamburug'lar hisoblanadi. Mitseliysi yaxshi rivojlangan. Jinssiz ko'payishi konidiasporalar yordamida amalga oshadi. 7. Derteromitsetsimonlar (Deutermycetes) takomillashmagan zamburug'lar hisoblanadi. Mitseliysi yaxshi rivojlangan. Jinssiz ko'payishi konidiasporalar bilan boradi.

XULOSA. Biz bu tezisda zamburug'larning tuzilishi va ularning sistematikasini bilib oldik. Zamburug'larning sistematikasi, sinflari haqida va zamburug'larning faqatgina salbiy

emas, balki ularni tabiatda va inson hayotidagi ijobiy taraflarini ham batafsil ma'lumotlarni bilib oldik.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Mustafaev S.M., Ahmedov O'.A. Botanika. Toshkent, 2006.
2. Velikanov L.I. va bosh. Tuban o'simliklar. Moskva, MGU, Toshkent 1995 y. (ruschadan qisqartirilgan tarjima).
3. Saxobiddinov S.S. o'simliklar sistematikasi. 1 tom, Toshkent, «O'qituvchi», ss1976.
4. WWW.ziyo.net
5. WWW.librariy.uz